

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY  
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

**Qo‘lyozma huquqida  
UDK: 336.645.3**

**RASULOV AKMAL ABDUNAIMOVICH**

**TA’LIM KREDITINI MOLIYALASHTIRISHNING ISTIQBOLLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

**D I S S Y E R T A S I Y A**

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor M.B.Kalonov**

**Toshkent – 2024**

## M U N D A R I J A

|                                                                                          |            |
|------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>KIRISH.....</b>                                                                       | <b>3</b>   |
| <b>1-BOB. TA'LIM KREDITINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....</b>                | <b>11</b>  |
| 1.1-§ Ta'lim sifati mamlakat iqtisodiyotining poydevori.....                             | 11         |
| 1.2-§ Ta'lim kreditini moliyalashtirishning nazariy huquqiy masalalari.....              | 21         |
| 1.3-§ Ta'lim kreditini moliyalashtirishning xorij tajribasi.....                         | 34         |
| Birinchi bob bo'yicha xulosa.....                                                        | 47         |
| <b>2-BOB. TA'LIM KREDITINI MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....</b>          | <b>50</b>  |
| 2.1-§ O'zbekiston ta'lim xizmatlari bozorini tahlil qilish.....                          | 50         |
| 2.2-§ Ta'lim kreditining joriy holati tahlili.....                                       | 61         |
| Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....                                                        | 74         |
| <b>3-BOB. O'ZBEKISTONDA TA'LIM KREDITI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI.....</b> | <b>75</b>  |
| 3.1-§ Ta'lim kreditini moliyalashtirish jang'armasi faoliyatini raqamlashtirish.....     | 75         |
| 3.2-§ Ta'limni kreditlash mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....                    | 85         |
| 3.3-§ O'zbekistonda ta'lim krediti tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari..... | 97         |
| Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....                                                        | 109        |
| <b>XULOSA.....</b>                                                                       | <b>112</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>                                                    | <b>116</b> |
| <b>ILOVALAR.....</b>                                                                     | <b>125</b> |

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Ta'lim kreditlari bo'yicha tadqiqotlar butun dunyoda muhim ahamiyatga ega, chunki bu ularning oliy ta'lim olish, iqtisodiy harakatchanlik va ijtimoiy tenglikka ta'sirini tushunishga yordam beradi. "Federal rezervning eng so'nggi choraklik ma'lumotlariga ko'ra 2024 yilda Qo'shma Shtatlardagi talabalar uchun qarz oluvchilar federal va xususiy talaba kreditlari bo'yicha umumiy 1,74 trillion dollar qarzдор bo'lib, 2020-21 yillarda bakalavr darajasiga ega bo'lganlarning 54 foizi talaba qarz bilan bitirgan"<sup>1</sup>. Bu esa turli xil kredit tuzilmalari va to'lov imkoniyatlarini o'rganib, yanada samarali va adolatli ta'limni moliyalashtirish tizimlarini ishlab chiqish, ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha talabalarning ortiqcha moliyaviy yuksiz oliy ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'lishlarini ta'minlashga bo'lgan tadqiqotlarni olib borishni taqozo qilmoqda.

Xalqaro miqyosida ta'lim kreditini moliyalashtirishga doir ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'lim kreditlari bo'yicha tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari kreditdan foydalanish imkoniyati va tenglik, qaytarilish muammolari, to'lov rejalari va bitiruvchilarga moliyaviy yukni tahlil qilish, ta'lim kreditlarining milliy iqtisodiyotga, ishchi kuchining rivojlanishiga va individual iqtisodiy harakatchanlikka qanday ta'sir qilishini o'rganish, ta'lim kreditlarini boshqarish va qarz oluvchilarni himoya qilishda davlat siyosati va qoidalarining samaradorligini baholash, kredit qarzining talabalarning ruhiy salomatligiga, kasb tanlashiga va hayotiy qarorlariga ta'sirini o'rganish kabi masalalar hozirgi kundagi dolzarb muammo sifatida o'rganilmoqda.

O'zbekistonda ta'lim krediti olish oliy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy harakatchanlikni rag'batlantirish va mamlakatda malakali kadrlar rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega.

---

<sup>1</sup>Federal Reserve. Consumer Credit Outstanding.  
[https://www.federalreserve.gov/releases/g19/HIST/cc\\_hist\\_memo\\_levels.html](https://www.federalreserve.gov/releases/g19/HIST/cc_hist_memo_levels.html);  
College Board. Trends in College Pricing and Student Aid 2022. chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://research.collegeboard.org/media/pdf/trends-in-college-pricing-student-aid-2022.pdf

Bunday moliyaviy yordam talabalarga akademik va kasbiy oʻsishni davom ettirish imkonini beradi va mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy farovonligiga hissa qoʻshadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti “Yoshlar huquqi deganda, biz, birinchi navbatda, ularning tinch va sogʻlom yashash hamda taʼlim olishga boʻlgan toʻlaqonli huquqini tushunamiz. Shu bois, unib-oʻsib kelayotgan yosh avlodimizning barkamol boʻlib voyaga yetishi, sifatli va mukammal taʼlim olishini taʼminlash biz uchun hamisha ustuvor vazifa hisoblanadi”<sup>2</sup>-deb taʼkidlagani koʻplab vazifalarni belgilab qoʻymoqda. Ushbu vazifalar ijrosini taʼminlash taʼlim kreditini moliyalashtirish boʻyicha kengroq ilmiy-tadqiqot ishlar olib borishni taqozo etmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi PF-87-son “Oila va xotin-qizlarni tizimli qoʻllab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2024 yil 27 maydagi PF-82-son “Oliy va professional taʼlim tashkilotlari talabalari va oʻquvchilariga byudjet mablagʻlari hisobidan taʼlim kreditini ajratish tartibini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi farmonlari, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”, 2021 yil 30 iyuldagi PQ-5203-son “Oliy va professional taʼlim tashkilotlarida taʼlim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2023 yil 24 maydagi PQ-162-son “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yoʻnalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni maʼnaviy-axloqiy hamda

---

<sup>2</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oʻqituvchi va murabbiylar kuniga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqi

madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Taʼlim kreditini moliyalashtirishning nazariy-uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar M.Guille, A.Andronic, D.B.Johnstone, J. G.Kilgour, A.Kvashin, K.Dmitriyevich, O.Ribakova, R.Viktorovna, G.Pogosyan, A.Tuijnman, R.E.Mbah, D.F.Wasum, C.M.Mende, M.M.Kossey, J.M.Ishengoma va boshqalarni kiritish mumkin<sup>3</sup>.

Oʻzbekistonlik iqtisodchi olimlardan T.Malikov, N.Xaydarov, O.Olimjonov, D.A.Raxmonov, Sh.A.Toshmatov, L.N.Xazratkulova, N.Sh.Shavkatov, S.S.Yakubova kabi olimlarning ilmiy va oʻquv-uslubiy ishlarida oʻz aksini topgan<sup>4</sup>. Ushbu tadqiqot ishlarida davlat byudjeti tomonidan moliyalashtirishning nazariy va metodologik asoslarining ayrim jihatlari oʻrganilgan. Ammo taʼlim kreditini moliyalashtirishga oid masalalar oʻrganilmagan. Shu sababli taʼlim kreditlarini moliyalashtirish boʻyicha ilmiy tadqiqot oliy taʼlim olish imkoniyatlarini kengaytirish, unga doir siyosatni ishlab chiqishda axborot berish va mamlakatning

---

<sup>3</sup> Guille, M. (2002). Student Loans: a solution for Europe? *European Journal of Education*, 37, 417-431. <https://doi.org/10.1111/1467-3435.00119>; Andronic, A. (2023). Financing the digitization of education in the Republic of M. *Development through Research and Innovation - 2022*. <https://doi.org/10.53486/dri2022.14>; Johnstone D.B., Marcucci P.N. JHU Press; 2010. *Financing Higher Education Worldwide: Who Pays? Who Should Pay?* [Google Scholar]; Kilgour, J. G. (2019). The 401(k) student loan repayment benefit program. *Compensation & Benefits Review*, 088636871882224. <https://doi.org/10.1177/0886368718822249>; Kvashin, A., Dmitriyevich, K., Ribakova, O., & Viktorovna, R. (2020). Development of a regulatory system for the financial mechanism of an autonomous educational institution. *RUDN Journal of Economics*, 28, 146-159. <https://doi.org/10.22363/2313-2329-2020-28-1-146-159>; Pogosyan, G. (2022). Development of educational loan programs. 202202. <https://doi.org/10.14451/2.164.58>; Tuijnman, A. (2009). The Education Lending Policy of the European Investment Bank.. *European Journal of Education*, 44, 111-125. <https://doi.org/10.1111/J.1465-3435.2008.01374.X>; Mbah, R. E. (2021). A Possibility or Just a Wish? Assessing Current Perceptions on the Potentials of a Full Student Loan Debt Forgiveness Legislation. *Advances in Social Sciences Research Journal*, 8(10), 365–392. <https://doi.org/10.14738/assrj.810.11091>; Mbah, R. E., Wasum, D. F., & Mende, C. M. (2020). Assessing the relationship between Pell Grant and Federal Student Loan at Louisiana four-year public institutions. *Journal of Education and Practice*, 11(9), 40–44. <https://doi.org/10.7176/jep/11-9-04>; Kossey M.M., Ishengoma J.M. Issues and challenges of student financing systems in Africa: the case of Tanzania. *International Journal of African Higher Education*. 2017;4(1) [Google Scholar]

<sup>4</sup> Malikov T., Xaydarov N. Davlat byudjeti. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent-2007.; Malikov T., Olimjonov O. Moliya (darslik) / Toshkent. Iqtisod-moliya -Toshkent, 2019.; Toshmatov Sh.A va b. Moliyalashtirishning innovatsion usullari. Monografiya. – T.: «Moliya» nashriyoti, 2015. - 160 b.; Raxmonov D.A. Oʻzbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: i.f.d. avtoreferat. – Toshkent, TDIU. – 2018. – 72 bet.; Xazratkulova L.N. Sotsialno-ekonomicheskoye razvitiye gosudarstv yevrazii i drugix zarubezhnykh stran. J:Проблемы современной экономики, №4 (84), 2022.; Shavkatov N.Sh. Davlat va xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish: i.f.f.d. ... dis. Avtoref.- T. TMI, 2021.; Yakubova S.S. Oʻzbekistonda davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha taʼlim tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish. i.f.f.d. ... dis. Avtoref.- T. TMI, 2023.;

malakali ishchi kuchini oshirish orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun zarur.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi «O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari» ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi transformatsiyasining uslubiy asoslari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ta'lim kreditini moliyalashtirishning istiqbollari qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ta'lim kreditini moliyalashtirishning nazariy-huquqiy asoslarini o'rganish;

ta'lim kreditini moliyalashtirishning xorijiy tajribasini tadqiq qilish;

O'zbekiston ta'lim xizmatlari bozorini ilmiy jihatdan tahlil qilish;

tijorat banklari orqali moliyalashtirilayotgan ta'lim kreditini joriy holatini tahlil qilish;

ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasini raqamlashtirishni tashkil etish;

ta'limni kreditlash mexanizmini takomillashtirish;

ta'lim krediti tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim muassasalari faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib ta'lim kreditini moliyalashtirishning nazariy, amaliy hamda uslubiy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda dialektik yondashuv, analiz, sintez, deduksiya, induksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ta'lim kreditining iqtisodiy funksiyalarining aniqligi va ta'sirchanligini ta'minlashda oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olish uchun ta'lim kreditini faqat kunduzgi ta'lim shaklida o'qiyotgan talabalarga ajratish tizimini yo'lga qo'yish taklif etilgan;

ikkinchi va undan yuqori bosqich talabalari uchun fanlarni o'zlashtirishning o'rtacha ko'rsatkichi "qoniqarli" bahodan past bo'lgan taqdirda to'lov-kontrakt summasining ko'pi bilan 80 foizi miqdorida ta'lim krediti sifatida ajratish taklifi asoslangan;

talabalar tomonidan kredit olishga onlayn ariza topshirish hamda tijorat banklari tomonidan ajratilgan ta'lim kreditlarini moliyalashtirish uchun depozit resurslar ajratilishini elektronlashtirish taklifi asoslangan;

tashkiliy-huquqiy shakli va idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar barcha oliy ta'lim tashkilotlarining to'lov-kontrakt shartnomasini shakllantirish jarayonini "kontrakt.edu.uz" va "prof.edu.uz" axborot tizimlari orqali amalga oshirish asosida ta'lim kreditlarini moliyalashtirishni takomillashtirish taklif etilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

ta'lim kreditlarini moliyalashtirish uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligidan depozit resurslar ajratilishini elektronlashtirish taklif etilgan;

ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi faoliyatini raqamlashtirilishining afzalliklari asoslantirilgan;

talabalarga ta'lim-kreditini moliyalashtirishning takomillashgan mexanizmi ishlab chiqilgan;

O'zbekistonda ta'lim krediti tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishini tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va

tavsiyalarning O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ta’lim kreditini moliyalashtirishga oid nazariy-metodologik va moliya tizimiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatimizda ta’lim kreditini moliyalashtirish, byudjet xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash, xarajatlarni maqsadli sarflash, moliyaviy nazorat va byudjet siyosatini ishlab chiqishda, ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan darsliklar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ta’lim kreditini moliyalashtirish istiqbollari bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

ta’lim kreditining iqtisodiy funksiyalarining aniqligi va ta’sirchanligini ta’minlashda oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olish uchun ta’lim kreditini faqat kunduzgi ta’lim shaklida o‘qiyotgan talabalarga ajratish tizimini yo‘lga qo‘yish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-maydagi “Oliy va professional ta’lim tashkilotlari talabalari va o‘quvchilariga byudjet mablag‘lari hisobidan ta’lim kreditini ajratish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-82-son Farmonida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 5-iyundagi 06/33-4-11853-son ma’lumotnomasi). Taklif natijasida ta’lim kreditlarini to‘lamaslik xavfi kamaytib, kredit dasturlari uchun moliyaviy barqarorlik ta’minlangan;

ikkinchi va undan yuqori bosqich talabalari uchun fanlarni o‘zlashtirishning o‘rtacha ko‘rsatkichi “qoniqarli” bahodan past bo‘lgan taqdirda to‘lov-kontrakt summasining ko‘pi bilan 80 foizi miqdorida ta’lim krediti sifatida ajratish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-maydagi “Oliy va professional ta’lim tashkilotlari talabalari va o‘quvchilariga byudjet mablag‘lari hisobidan ta’lim kreditini ajratish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-82-son



Farmonida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 5-iyundagi 06/33-4-11853-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarni rag'batlantirish va kreditorlar uchun moliyaviy xavfni kamaytirishda potensial foyda keltirishi aniqlangan;

talabalar tomonidan kredit olishga onlayn ariza topshirish hamda tijorat banklari tomonidan ajratilgan ta'lim kreditlarini moliyalashtirish uchun depozit resurslar ajratilishini elektronlashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-son Qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 5-iyundagi 06/33-4-11853-son ma'lumotnomasi). Taklif natijasida ta'lim kreditini moliyalashtirishni raqamlashtirish nafaqat texnologik ish, balki jismoniy shaxslarning imkoniyatlarini kengaytirib, inson omilini kamayishini ta'minlagan;

tashkiliy-huquqiy shakli va idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar barcha oliy ta'lim tashkilotlarining to'lov-kontrakt shartnomasini shakllantirish jarayonini "kontrakt.edu.uz" va "prof.edu.uz" axborot tizimlari orqali amalga oshirish asosida ta'lim kreditlarini moliyalashtirishni takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-maydagi "Oliy va professional ta'lim tashkilotlari talabalari va o'quvchilariga byudjet mablag'lari hisobidan ta'lim kreditini ajratish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-82-son Farmonida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 5-iyundagi 06/33-4-11853-son ma'lumotnomasi). Natijada tijorat banklari tomonidan talabgorlarga ta'lim kreditini taqdim etish jarayonida ular haqidagi ishonchli ma'lumotlarni olish jarayonini tezlashtirish va osonlashtirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etadi.